

13-Mavzu: Hunarli mingni yengar. Hikoyat. ("Farzandnoma" kitobidan, Obiddin Mahmudov)

Darsning maqsadi:

a)ta'limiy: o`quvchilarni hikoyat matni bilan tanishtirish, mazmunini tushuntirish, hikoyatni ifodali o`qishni o`rgatish.

b)tarbiyaviy: o`quvchilarga kasb-hunar o`rganishga qiziqtirish, ularni mehnatsevarlik ruhida tarbiyalash.

c)rivojlantiruvchi: o`quvchilarining ifodali o`qish ko`nikma va malakalarini , mustaqil va mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish.

Dars turi: Yangi tushuncha,bilimlarni shakllantiruvchi

Dars metodi: Suhbat, tushuntirish, "Aqliy hujum" metodi,savol-javob,ta'limiy o`yinlar.

Dars jahozi: Mavzuga oid rangli rasmlar, tarqatma materiallar

Darsning borishi:

I.Tashkiliy qism:

Salomlashish. Davomatni aniqlash.

O`quvchilarni darsga hozirlash. Ma'naviyat daqiqasi o`tkaziladi.

II.Uy vazifasini so`rash va o`tilgan mavzuni mustahkamlash.

Uyga berilgan vazifa – "*Yetti xazinaning biri*" hikoyasini o`quvchilar ifodali o`qib, mazmunini so`zlab beradilar.

"Yosh aktyor" o`yini.

Hikoya o`quvchilar tomonidan sahnalashtirib namoyish qilinadi.

III.Yangi mavzu bayoni.

"Kim hozirjavob?" o`yini. O`quvchilar berilgan savollarga javob beradilar.

1.Hunarli qanday qilib mingni yengadi?

2. Nega yigit kishiga yetmish hunar ham oz deyishadi?

O`quvchilar berilgan rasmni ta'riflab, unga mos sarlavha topadilar.



Bugungi mavzu e'lon qilinadi: "**Hunarli mingni yengar**" hikoyati.

Yangi mavzu o`quvchilarga o`qituvchi tomonidan ifodali o`qib beriladi.
Mazmuni tushuntiriladi.

Lug`at ishi:

Hujra – kichik xona, uy


Behuda – bekorga

Tunamoq – kechasi yotib qolmoq

Mashg`ul – biror ish bilan band bo`lmoq

"**Hunarli mingni yengar**" hikoyati o`quvchilarga zanjir usulida o`qitiladi.

Hikoyat so`ngida xulosa chiqariladi.



Qissadan hissa:

Yosh podshoh o'zining ko'rgan qiyinchiliklari tufayli hayotning har bir lahzasini mazmunli o'tkazish lozimligini tushunib yetibdi. Shuningdek, har qanday mamlakatning tinchligi, qudrati, ravnaqi o'sha yurt fuqarolarining jasurligi, mardligi va kasb-hunar egallaganligiga bog'liqligini ham anglab yetibdi.

IV.Yangi mavzuni mustahkamlash.

"Aqliy hujum" metodi.

1. Oqil va odil podshoh nima uchun o'z taxtini qo'ldan chiqardi?
2. Taxtidan ayrılgan podshoh qayerga borib qoldi?
3. U qanday hunar o'rgandi?
4. Hikoyatdan qanday xulosa chiqardingiz?

"Rollarga bo`lib o`qish"

Hikoyat o`quvchilarga rollarga bo`lib o`qitiladi.

Mashq daftар bilan ishlash.

1-topshiriq. Savollarga javob yozing. O`quvchilar berilgan savollarga javob yozadilar.

2-topshiriq. Tushirib qoldirilgan so'zlarni o'z o'rniga qo'ying.

1. Qadim zamonlarda qudratli bir davlatning **bahodir** va **navqiron** podshohi bo'lgan ekan.
2. U **yo'l** yuribdi, **yo'l** yursa ham **mo'l** yurib, tog'-u tosh, qir-u adir, cho'l-u biyobonlardan oshib, o'zga bir mamlakatga kelib qolibdi.

3. Karvonimizga **qaroqchilar** hujum qilib, hammani o'ldirishdi.
4. Chunki odamzodning boshiga qachon musibat, **og'ir** kunlar tushsa, u kasb-hunar, **umr, hayot** haqida o'ylay boshlaydi-da.
5. Shunda chol unga shu yerda **temirchilikni** o'rganib, kun ko'rishini taklif qilibdi.
6. U kasbini puxta o'rganib, mohir **temirchi** bo'lib yetishibdi.
7. Vaqtlar o'tib, bu yurt juda **qudratli** sultanatga aylanib, fuqarolari **farovon** hayot kechira boshlabdi.

3-topshiriq. Hunar va mehnatsevarlik haqida maqollar yozing.

1. Mehnat – mehnatning tagi rohat.
2. Mehnat qilib topganing, Qandu asal totganing.
3. Hunarli er xor bo'lmas, Do'st-dushmanga zor bo'lmas.

V.Darsni yakunlash va o'quvchilarni baholash.

Savol-javob o'tkaziladi.

– Hikoyatdan qanday xulosa chiqardingiz?

Darsda faol qatnashgan o'quvchilar baholab, rag'batlantiriladi.

VI. Uyga vazifa berish. *Hikoyatni ifodali o'qib, erkin so'zlab berishga tayyorlaning.*

14-mavzu: Kitob va boylik(Hidoyat Olimova)

Darsning maqsadi:

- a) **ta'limiy:** o'quvchilarni hikoya matni bilan tanishtirish, mazmunini tushuntirish, o'quvchilarni to'g'ri, ravon va ifodali o'qishga o'rgatish.
- b) **tarbiyaviy:** o'quvchilarga ilm olishga va kitob o'qishga qiziqtirish, kitobxonlikka o'rgatish.
- c) **rivojlantiruvchi:** o'quvchilarning ifodali o'qish ko'nikma va malakalarini, og'zaki nutqini rivojlantirish.